

MAKTAB RAHBARLARINING INKLYUZIV TA'LIMDAN INKLYUZIV JAMIYATGA  
O'TISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

**Abdug'aniyev Abdurauf Abdumannonovich**

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Inklyuziv ta'lim va mehrli maktab faoliyatini  
muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab rahbarlarining inklyuziv ta'limni tashkil etishdagi roli va bu orqali inklyuziv jamiyatni shakllantirishga qo'shayotgan hissasi yoritilgan. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, rahbar kadrlar uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar va xalqaro tajriba tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, inklyuziv jamiyat, maktab rahbari, kompetensiya, yetakchilik, ta'lim siyosati.

**ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ШКОЛ ПО ПЕРЕХОДУ  
ОТ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К ИНКЛЮЗИВНОМУ ОБЩЕСТВУ**

**Аннотация:** В этой статье рассматривается роль школьных лидеров в организации инклюзивного образования и вклад, который они вносят в формирование инклюзивного общества посредством него. Проанализированы основные принципы инклюзивного образования, компетенции, необходимые руководящему персоналу, международный опыт.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, инклюзивное общество, руководитель школы, компетентность, лидерство, образовательная политика.

**FORMATION OF COMPETENCIES OF SCHOOL LEADERS TO TRANSITION  
FROM INCLUSIVE EDUCATION TO INCLUSIVE SOCIETY**

**Abstrakt:** this article covers the role of school leaders in the organization of inclusive education and the contribution they are contributing to the formation of inclusive society through it. The basic principles of inclusive education, competencies necessary for executive personnel and international experience have been analyzed.

**Key words:** inclusive education, inclusive society, school leader, competence, leadership, education policy.

Inklyuziv ta'lim so'nggi yillarda dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan bo'lib, bu konsepsiya ta'limning barcha bosqichlarida teng imkoniyatlarni ta'minlashni nazarda tutadi.

Respublikamizda bolalarning jismoniy salomatligini ilk yoshidan boshlab tashxislash, sog'liqlarini doimiy nazorat qilish va mustahkamlash, har bir bolaning sifatli bilim olishlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar inklyuziv ta'limni ham rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Nogironligi bo'lgan, o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega, ijtimoiy yoki iqtisodiy jihatdan cheklangan bolalarni umumiy ta'lim tizimiga qo'shish orqali inklyuziv ta'limni rivojlantirishning tashkiliy va me'yoriy huquqiy asoslar yaratilmoqda. Shuningdek, "Imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash..."[1], "inklyuziv ta'limni tashkil etish, nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqlarini kengaytirish va ularning jamiyatga integratsiyasini ta'minlash"[2] kabi ustivor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda inklyuziv ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun faqat qonunchilik va didaktik yondashuvlar yetarli

emas, maktab rahbarining inklyuziv yetakchilik kompetensiyalari rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim - bu faqatgina nogironligi bo'lgan bolalarni maktabga jalb qilish emas, balki barcha bolalar uchun moslashtirilgan, qadriyatga asoslangan o'quv muhitini yaratishdir. Bu esa maktab rahbarlarining ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlari tamoyillariga asoslangan qarashlarini talab etadi.

**Inklyuziv ta'lim** - bu "barcha bolalarning o'z farqlari, sharoitlari va ehtiyojlariga qaramay, sifatli ta'lim olishini ta'minlashga qaratilgan harakatlar tizimi"dir [3].

Jahonda zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning turli ehtiyojlarini inobatga olib, moslashuvchan va inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro miqyosda inklyuziv ta'limni keng joriy etish, har bir bolaning individual ehtiyojlariga asoslangan ta'lim jarayonlarini tashkil etishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. BMT va YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlarning siyosati, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va teng imkoniyatlar yaratish maqsadida ta'lim muhitini moslashtirishga qaratilgan. Xususan:

**Finlyandiya**da inklyuziv ta'lim milliy siyosat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, har bir maktab direktori inklyuzivlik bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarida qatnashadi [8].

**Kanada**da esa rahbarlar uchun "Equity Leadership" dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, bu orqali rahbarlar jamiyatdagi barcha guruhlarning vakillarini teng ishtirok etishga jalb etishni o'rganadi [9].

Inklyuziv ta'limni boshqaruv nuqtayi nazaridan – turli qobiliyat va ehtiyojlarga ega o'quvchilarni birlashtiruvchi ta'lim muhitini yaratish; ta'lim muassasasining ichki resurslarini samarali muvofiqlashtirish; o'qituvchilar, psixologlar, ijtimoiy xizmatlar va otionalarning hamkorligini yo'lga qo'yish; monitoring va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish orqali inklyuzivlik darajasini tahlil qilishdan iborat.

Inklyuziv ta'lim birgina o'qituvchining emas, balki butun maktab jamoasining hamkorlikdagi boshqaruv tizimi orqali amalga oshiriladi.

Bunday keng qamrovli islohotlar inklyuziv ta'limni nafaqat nogiron bolalar huquqlarini ta'minlash vositasi, balki barcha o'quvchilarda insoniylik, bag'rikenglik, ijtimoiy mas'uliyat, hamjihatlik va xilma-xillikka hurmat tuyg'ularini shakllantiruvchi vosita sifatida qarash imkonini bermoqda. Shunday qilib, inklyuziv ta'lim jamiyatni ham inklyuziv, ochiq va adolatli tizimga aylantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Maktab rahbarining inklyuziv yetakchilik kompetensiyalari:

Inklyuziv ta'limni maktab miqyosida joriy etishda rahbarning roli muhim ahamiyatga ega. Ular quyidagi **kompetensiyalar**ga ega bo'lishi lozim:

- a) Strategik fikrlash va siyosatni amalga oshirish -rahbar inklyuzivlikni maktab strategiyasiga aylantirib, tegishli siyosatni ishlab chiqishi va joriy qilishi kerak [4].
- b) Empatiya va madaniy sezuvchanlik -rahbarlar o'z jamoasida turlicha ehtiyojlarga ega bolalar bilan ishlashda empatiyani rivojlantirishi va ijtimoiy hamkorlik muhitini yaratishi kerak [5].

c) **Jamoani boshqarish va inklyuzivlikni targ'ib qilish – ta'lim muassasasida inklyuziv yondashuvni faqat rahbar emas, balki butun pedagogik jamoa ilgari surmog'i kerak. Shu bois, rahbar jamoa a'zolariga zarur ko'nikmalarni berish uchun treninglar tashkil etadi [6].**

d) **Monitoring va baholash kompetensiyasi -inklyuzivlik siyosati qanday natijalar berayotganini o'lchash, tahlil qilish va takomillashtirish bosqichlarini yurita oladigan rahbar zarur [7].**

Maktab rahbari inklyuziv ta'limni tashkil etishda bevosita ishtirok etadigan asosiy shaxsdir. Uning vazifasi faqat maktabni boshqarish bilan cheklanib qolmaydi, balki inklyuziv ta'lim tamoyillarini amalga oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilishdir.

Maktab rahbari inklyuziv ta'limni joriy qilish uchun aniq siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlashi kerak. Bu siyosat ta'limning barcha sohalarida teng imkoniyatlarni yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Siyosatni ishlab chiqishda rahbar quyidagi jihatlarga e'tibor berishi zarur: maktabdagi barcha bolalar uchun ta'limni moslashtirish; o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularga zarur ko'nikmalarni berish; inklyuziv ta'limning barcha aspektlarini yorituvchi pedagogik dasturlarni yaratish.

Shunindek, maktab rahbari inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Bu, avvalo, qulay va moslashtirilgan o'quv muhitini yaratish, maxsus ta'lim resurslarini taqdim etish (masalan, nogironlar uchun texnologiyalar, o'qish materiallari, ijtimoiy yordam xizmatlari)ni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi rahbarning samarali boshqaruvini talab qiladi.

Maktab rahbarlari inklyuziv jamiyatga o'tishda asosiy yetakchi kuch hisoblanadi. Ularning quyidagi kompetensiyalari shakllantirilishi zarur:

1. **Pedagogik kompetensiya** – inklyuziv o'quv muhitini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha bilim va malakalar.
2. **Ijtimoiy-psixologik kompetensiya** – o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida inklyuziv qadriyatlarni mustahkamlash.
3. **Tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasi** – inklyuziv siyosatlarni joriy qilish, resurslarni boshqarish va kadrlarni tayyorlash.
4. **Madaniyatlararo kompetensiya** – turli madaniy va ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot o'rnatish.

#### **Mezonlar (baholash ko'rsatkichlari)**

Maktab rahbarlarining inklyuziv kompetensiyalarini baholash uchun quyidagi mezonlar taklif etiladi:

**Bilim darajasi** – inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyoti bo'yicha bilimlarga ega bo'lish;

**Ko'nikmalar** – jamoaviy ishni tashkil etish, ehtiyojlarga mos yondashuvni qo'llash;

**Qadriyatlar** – tenglik, hurmat, ijtimoiy adolat prinsiplariga sodiqlik;

**Amaliy faoliyat** – inklyuziv tashabbuslarni amalga oshirish tajribasi;

**Innovatsion yondashuv** – yangi usul va texnologiyalarni joriy eta olish salohiyati.

Xulosa sifatida inklyuziv jamiyat sari intilish maktab rahbarlaridan o'zining rahbarlik kompetensiyalarini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirishni talab etadi. Mazkur kompetensiyalarni shakllantirish orqali nafaqat ta'lim muhitida, balki butun jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga erishish imkoniyati kengayadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-7

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori
3. UNESCO. (2009). *Policy Guidelines on Inclusion in Education*. Paris: UNESCO.
4. Ainscow, M., Booth, T. & Dyson, A. (2006). *Improving Schools, Developing Inclusion*. Routledge.
5. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring inclusive pedagogy. *British Educational Research Journal*, 37(5), 813–828.
6. Fullan, M. (2014). *The Principal: Three Keys to Maximizing Impact*. Jossey-Bass.
7. OECD. (2012). *Equity and Quality in Education: Supporting Disadvantaged Students and Schools*. OECD Publishing.
8. Kiuppis, F. (2014). Why (not) associate the principle of inclusive education with disability? *International Journal of Inclusive Education*, 18(5), 519–528.
9. Ryan, J. (2006). Inclusive leadership and social justice for schools. *Leadership and Policy in Schools*, 5(1), 3–17.